

---

## AYOLLARIMIZ YANA ETIBORDA

Bugun Rishton tumani hokimligi binosida sektor rahbarlari, hamda hokim yordamchilari ishtirokida tumandagi ishsizlar ro'yxatda turuvchi 25 nafar xotin-qizlarga «mahallabay» jamg'armasi hisobidan ularning bandligini ta'minlash maqsadida subsidiya asosida 25 dona tikuv mashinasi tarqatildi.

Endi ular o'zlarining tadbirkorlik faoliyatini boshlashlari uchun bepul zamonaviy tikuv mashinasiga ega bo'ldilar. Xotin-qizlar zamonaviy tikuv mashinasi yordamida kuylak va pardalar tikib, oilasi uchun qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lishi, oilasi, farzandlarining kelgusi hayotlarini o'z qo'llari bilan yaratishi va hunar o'rganishlari mumkin.

✉ Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-11-25 16:50:47